
Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Gulxumorxon Xalilova bugun 40-IDUMda o'tkazilgan fan olimpiadasining(ona tili, o'zbek tili, matematika) shahar bosqichi haqida ma'lumot berdi:

Bugun Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 40-IDUMda joriy yilning 12 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, xalqaro fan olimpiadalarining saralash bosqichini o'tkazish, O'zbekiston terma jamoasini olimpiadalarga puxta tayyorlash dolzarb vazifa sifatida belgilanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida» 2021 yil 9 sentyabrdagi 562-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika fan olimpiadalarining ikkinchi (tuman, shahar) bosqichi start oldi.

Fan olimpiadasining shahar bosqichining birinchi kunida matematika, ona tili va o'zbek tili fanlaridan jami 405 nafar 9-,10-,11-sinf o'quvchilari o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdilar. Quyida g'oliblar bilan tanishishingiz mumkin.

1. Matematika 9-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 2-IDIM o'quvchisi Masharipov Bahrom

2-o'rin: 21-IDUM o'quvchisi Nabijonov Amir

3-o'rin: 10-IDIM o'quvchisi Nazarov Azamat

2. Matematika 10-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 28-maktab o'quvchisi Azimova Marjona

2-o'rin: VIDUMI o'quvchisi Baxtiyorov Muhammadyusuf

3-o'rin: 4-VIDUMI o'quvchisi Abdurahimov Muhammadaziz

3. Matematika 11-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 1-maktab o'quvchisi Mo'minova Ruhshona

2-o'rin: 16-maktab o'quvchisi Barayimov Nurmuhammad

3-o'rin: 2-IDUM o'quvchisi Axunov Firdavs.

4. Ona tili 9-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 5-maktab o'quvchisi Abdullaeva Go'zal

2-o'rin: 20-maktab o'quvchisi Abdulvohidova Muslimaxon

3-o'rin: 5-maktab o'quvchisi Abdumalikova Gulxayo

5. Ona tili 10-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 41-IDUM o'quvchisi Ubaydullaeva Madinaxon

2-o'rin: 5-maktab o'quvchisi Tursunalieva Azizaxon

3-o'rin: 41-IDUM o'quvchisi Solieva Saidaxon

6. Ona tili 11-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 41-IDUM o'quvchisi Ibrohimova Mohizar

2-o'rin: 5-maktab o'quvchisi Husanova Madinabonu

3-o'rin: 41-IDUM o'quvchisi Shodalieva Madina

7.Davlat tili 9-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 40-IDUM o'quvchisi Qodirova Dilafro'z

2-o'rin: 40-IDUM o'quvchisi Botirjonova Muslimabonu

3-o'rin: 41-IDUM o'quvchisi To'g'onboeva Visola.

8.Davlat tili 10-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 2-IDUM o'quvchisi Bahoviddinov Shaxriyorbek

2-o'rin: 2-IDUM o'quvchisi Shokirjonova Dilnavoz

3-o'rin: 17-maktab o'quvchisi Qosimova Saodatoy

9.Davlat tili 11-sinflar bo'yicha:

1-o'rin: 14-maktab o'quvchisi Madazimova Ruhshonabonu

2-o'rin: 22-maktab o'quvchisi Shokirova Hushnoza

3-o'rin: 41-IDUM o'quvchisi Ashurova Janonaxonlar faxrli o'rinlarni egallab, viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-12 22:48:01